

CHET TILINI O‘QITISHDA AUTENTIK VIDEO-MATERIALLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7332726>

Alimova Sevara Farxadovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

“Xitoy filologiyasi” kafedrasida o‘qituvchisi

Annotation: *This article analyzes the effective methods of "Formation of socio-cultural competence of academic lyceum students using authentic video materials in foreign language teaching". Learning a foreign (non-native) language is challenging for any language learner. In order to overcome such difficulties, at first, the issues of formation of communicative competence of language learners were considered. Also, in the process of language teaching, the audio and video materials provided by the teacher to language learners of different ages were sorted step by step. Video materials are important in language teaching. The ability of students to learn the language increases by remembering the thoughts, psycho-emotional state, facial expressions, and gestures of the speaker in the audio and video materials. In the process of using such materials, a language learner may not fully understand the speaker from the video material, but can guess or partially understand the speaker's speech from his gestures and facial expressions. Through such materials, the language learner gradually develops the ability to learn the language. According to the results of the study, compared to the information provided only by voice, the information presented with the help of audio videos helps language learners to understand the reality as a whole. Audiovisual, thematically adapted to the audience of language learners it is possible to increase their communicative competence with the help of materials.*

Keywords: *authentic video materials; communicative competence; method; technology; foreign language; teaching methodology.*

Annotatsiya: *Mazkur maqola “Chet tilini o‘qitishda autentik video materiallardan foydalanib akademik litsey o‘quvchilarining ijtimoiy-madaniy kompetensiyani shakllantirish” samarali usullari tahlil qilingan. Har qanday til o‘rganuvchi uchun xorijiy (ona tili bo‘lmagan) tilni o‘rganish qiyinchiliklar tug‘diradi. Ana shunday qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida, dastlab, til o‘rganuvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish masalalari ko‘rib chiqildi. Shuningdek, til o‘rgatish jarayonida o‘qituvchi tomonidan turli yoshdagi til o‘rganuvchilarga taqdim etilayotgan audio va videomateriallarni saralash bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Til o‘rgatish jarayonida videomateriallar muhim ahamiyatga ega. Audio va videomateriallardagi nutq egasining fikri, psixo-emotsional holati, yuz ifodalari, imo-ishoralari yordamida talabalarning til o‘rganish imkoniyati yanada ortadi. Bunday materiallardan foydalanish jarayonida til o‘rganuvchi videomaterialdan nutq egasini to‘laqonli tushunmasligi mumkin, ammo uning imo-ishora va mimikalaridan so‘zlovchi nutqini taxmin qilishi yoki qisman tushunishi mumkin. Bunday materiallar orqali til o‘rganuvchida asta-sekin til o‘rganishga ko‘nikma hosil bo‘ladi. Tadqiqot natijasiga ko‘ra, faqat ovoz orqali taqdim etilgan ma‘lumotlarga nisbatan ovozli videotasvirlar yordamida taqdim etilgan ma‘lumotlar til o‘rganuvchilarga voqelikni yaxlit anglashga yordam beradi.*

Til o‘rganuvchilar auditoriyasiga mavzu jihatdan moslashtirilgan audiovizual materiallar yordamida ularning kommunikativ kompetensiyasini oshirish mumkin.

Kalit so‘zlar: autentik video materiallar; kommunikativ kompetentsiya; metod; texnologiya; chet tili; o‘qitish metodikasi.

Keyingi yillarda jamiyatning turli sohalaridagi taraqqiyot natijasida chet tillarning o‘rni mustahkamlanib, unga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Hech kimga sir emas, jahonga yuz tutgan ilg‘or davlatlar mehnat bozorining asosiy talabi — chet tilida bimalol muloqot qila oladigan, kompyuter texnologiyalaridan xabardor va innovatsion g‘oyalarga boy hamda o‘z uslubiga ega kadrlardir. Bunday talablar o‘z o‘rnida mamlakatimizda olib borilayotgan ta‘lim bilan bog‘liq islohotlarning asosiy negizini tashkil etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi tomonidan qabul qilingan “Ta‘lim to‘g‘risidagi qonun”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1875-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori chet tillarni o‘rganish davlat ahamiyatiga molik masala ekanligini ko‘rsatdi.

“O‘zbekiston Respublikasida ta‘limning barcha bosqichlarida chet tilini o‘qitishning asosiy maqsadi — o‘rganuvchilarning ko‘p madaniyatli dunyoda kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borish uchun chet tilida kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirishdan iborat”.

Kompetentsiya tushunchasi ko‘pgina xorijiy va mahalliy adabiyotlarda turli soha vakillari tomonidan o‘z sohasi yo‘nalishidan kelib chiqib turlicha talqin etiladi. Ammo bu atamaning asosi yagona mazmun, ya‘ni bilim, malaka va ko‘nikma kabi tushunchalarning shaxsda mujassamligi va ularni turli vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llay olish qobiliyati sifatida qaraladi. Bundan kelib chiqadiki, chet tili kommunikativ kompetentsiyasi chet tilidagi mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni muloqot jarayonida qo‘llash qobiliyatidir.

O‘zbekiston Respublikasi davlat ta‘lim standartida chet tili kommunikativ kompetentsiyasining tarkibiy qismlari sifatida lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik kompetentsiyalar kiritilgan bo‘lib, bu kompetentsiyalar kommunikativ kompetentsiyani takomillashtirishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Tilning ijtimoiy munosabatlarda qo‘llanilishini o‘rgangan sotsiolingvist D. Xayms tilning ta‘sirini kengroq yoritib berish maqsadida “kommunikativ kompetentsiya” atamasini qo‘llagan. Uning ta‘rifiga ko‘ra, chet tilida kommunikativ kompetentsiyaga ega shaxs, nafaqat grammatik tuzilmalarni bilishi, balki tildan foydalanish normalari va muayyan ijtimoiy sharoitga mos ravishda tilni qo‘llay olish qobiliyatiga ham ega bo‘lishi kerak. Bizningcha, o‘quvchida bunday bilimga ega bo‘lish, malaka va ko‘nikmani shakllantirish uchun kommunikativlikka asoslangan til ta‘limi chet tilini o‘qitish metodikasining ustuvor yo‘nalish bo‘lmog‘i lozim. Kommunikativlikka asoslangan til ta‘limi o‘z o‘rnida chet tilini o‘qitish jarayonida faqat o‘quvchiga nimani o‘rgatishni emas, balki qanday qilib o‘rgatish kabi masalalarni ham tahlil etadi. Kommunikativ til ta‘limi (Communicative Language Teaching) yoki tilga kommunikativ yondashuvda J. Xarmer ta‘rifiga ko‘ra, tilda egallangan muayyan grammatik normalar va so‘z boyligi ko‘lamigagina emas balki, tilning qo‘llanishdagi vazifasiga katta urg‘u berilishi lozim deb hisoblaydi. Shuningdek, CLTda til o‘rganuvchilar real hayotiy vaziyatlardagi muloqotga tayyorlanadi, uladan muloqot jarayonidagi kommunikativ vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish talab etiladi. Va shu bilan birga kommunikativlikka asoslangan chet tilini o‘qitish metodikasi zamonaviy til o‘rgatish talablariga ko‘ra til o‘rganuvchini faqat muloqotga o‘rgatishning o‘zini qoniqarli natija deb bilmaydi, balki qo‘shimcha tarzda til o‘qitishning turli vositalari asosida o‘quvchini o‘rganilayotgan til madaniyatidan ham xabardor qilish, uning kommunikativlikning barcha mezonlariga amal qilgan holda muloqotga kirisha olishini ta‘minlashini talab etadi. Ye. I. Passov ta‘limotiga ko‘ra, ta‘limdagi pirovard maqsad — o‘quvchini shaxs sifatida ma‘naviy kuchi

va qobiliyatini rivojlantirish, axloqiy jihatdan mas’uliyatli va ijtimoiy jihatdan namunali qilib shakllantirish — tarbiyalashdir. Shunday ekan, bugungi kun talabi nafaqat tarjima qilish, yozish, o’qish, yoki chet tilida muloqot qila olish, balki muayyan vaziyatlarda o’rganilayotgan tilni ijtimoiy-madaniy birliklardan kelib chiqqan holda to’g’ri qo’llay olishni talab etadi. O’quvchida chet til kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish va uning rivojlanishiga to’g’ridan-to’g’ri ta’sir etuvchi ta’lim metodlari o’rganilganda, tahlil etilgan adabiyotlarning asosiy qismida hayotiylikka asoslangan til ta’limining yoqlanganligiga guvoh bo’lamiz. Chet tillarni o’qitish metodlari yo’lida samarali izlanishlar olib borgan olim Ter-Minasova zamonaviy til o’rganuvchilar hozirda tilga ilmiy nazariy hodisa sifatida emas, balki hayotiy ehtiyoj sifatida qarayotganliklarini ta’kidlaydi. O’z-o’zidan ko’rinib turibdiki, chet tilini o’rganishga bo’lgan yondashuv va qarashlar oqimi hayotiy misollarga boy, real voqelikka asoslangan ta’lim metodini qo’llab-quvvatlamoda. Ko’pgina olimlar bu borada chet tilini o’qitishning ko’plab vositalaridan — radioeshittirishlar, Feysbuk (Facebook) ijtimoiy tarmog’i asosida chet tilini takomillashtirishga e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlashmoqda. Ammo radio, ijtimoiy tarmoqlar, autentik matnlar yoxud turli ICT dasturlar o’quvchida lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan bir yoqlama vosita sifatida xizmat qiladi.

Shu o’rinda chet tilini autentik video materiallar asosida o’qitishni yuqoridagi talablarning bajarilishi va kommunikativlikka asoslangan til ta’limining asosiy vositasi sifatida o’rganuvchini real hayotiy vaziyatlarga tayyorlash vazifalarining yengil yechimi deb qarashimiz lozim. Bundan tashqari autentik videomateriallar til o’rgatishda real hayotiy vaziyatning alternativ ko’rinishi sifatida yordam beradi. “Autentik audio-video materiallarning ommalashuvi til o’rganuvchilarga interaktiv til muhitini yarata olishidadir”, — deb ta’kidlaydi rus olimi G. A. Vorobyov. Shu o’rinda kommunikativlikka asoslangan bu tizimli metod, ya’ni autentik video yoki kinomateriallarga asoslangan o’qitish metodikasi ustida rus olimlaridan A. Ye. Chikunova, Yu. I. Verisokinlar, ko’p izlanishlar olib borganlar. Xorij olimlaridan S. Stempliski va B. Tomalinlarning videomateriallarini chet tillarni o’qitishda maqsadli qo’llash usullari haqida qator adabiyotlar yaratishgan. I. Baltovanning fikricha, ovoz orqali taqdim etilgan ma’lumotlardan ko’ra ovozli videotasvirlar yordamida taqdim etilgan ma’lumotlar til o’rganuvchilarning voqelikni yaxlit anglashlariga yordam beradi. Tadqiqot natijasida til o’rganuvchilar orasida yaxshiroq anglangan.

Ma’lumotlarning asosiy qismini videomateriallardagi harakatli nutqlar tashkil etishi ham aniqlangan. Bu metodni darsga tatbiq etish borasida olib borilgan o’rganish va izlanishlar quyidagi xulosalarga olib keldi:

— autentik videomateriallardan foydalanish, avvalo, til o’rganuvchiga u yoki bu chet tilda muayyan ijtimoiy guruhlarning aniq bir vaziyatdagi, so’zlashuv tilining barcha xususiyatlari (emotsional buyoqdorligi, nutq tezligi; mimika kabi) bilan yo’g’irilgan real muloqotni takdim etadi. Bunday hayotiy til muhiti orqali til o’rganuvchilar til uzusi (me’yor va

talablari), konnotativ leksika, mimika, verbal va neverbal muloqot turlari bilan yaqindan tanishadilar;

— autentik videomateriallar til o’rganuvchilarda kommunikativ kompetentlikni asosiy ko’rsatkichi bo’lgan gapirish (speaking) va tinglab tushunish (listening) ko’nikmalarini tezlik bilan real voqelikka asoslangan holda nutqda qo’llanilgan qochirimlar, kinoyalar, mahalliy tilda so’zlashuvchi kishilar — “native speaker” largagina ma’lum leksik birliklarning qo’lanisho’rinlari — diskursni o’rgangan holda rivojlanishiga olib keladi. Masalan, “Malikaning kundaligi” (“The princess dairies” 2001 yil. AQSh) filmida maktab o’quvchilari orasida qo’llangan folks iborasi xalq ma’nosida emas, balki do’stlar, o’rtoqlar ma’nosida qo’llanilayotganligini, “my old folks” esa

“mening qari xalqim” ma’nosida emas, balki mening ota-onam ma’nosida qo’llanilayotganligini va bu kabi iboralar mohiyatini ular xattiharakatidan anglab olish qiyin emas. Bunday oddiy hayotiy misollar asosida tilni o’rganish esa aksariyat til o’rganuvchilarning provard maqsadi bo’lgan chet tilida uning nozik tomonlarini ham anglagan holda muloqotga kirishishiga imkon yaratadi;

— autentik videomateriallar nutq egasining fikrini psixoemotsional holati, yuz ifodalari, imo-ishoralari orqali o’rganishga imkoniyat beradi. Shu bilan birga, insonning ruhiy holati bilan bog’liq jarayon (xursandchilik, hayratlanish, qayg’u, yig’i kabilar) barcha madaniyatlarga xos va bu kabi tushunchalar tarjima talab etmaydi. Shunday ekan, bu metod o’rganuvchilarga nutq yo’nalishini kontekstni to’liq tarjima qilmasdan tushunish imkonini beradi;

— autentik videomateriallarni darsda qo’llash o’rganuvchilarga tayyor nutq namunasini taqdim etadi va bu til o’rganuvchilarga nutqning talaffuz,intonatsiya,grammatik va leksik jihatlarini bevosita o’rganish imkonini beradi. Autentik videomateriallardan dars jarayonida foydalanilganda, ularning maqsadli va sistemali namoyish etilishi hamda metodik jihatdan to’g’riyo’naltirilishi muhim ahamiyatga ega. Darsning qaysi qismida videomateriallarni qo’llash darsning aniq maqsadi videomateriallarning vazifasiga qarab belgilanadi . Shunday ekan, autentik videomaterial dars boshida mavzuga (aqliy hujum metodi asosida) kirish, mavzu ustida ishlash yoki dars oxirida mavzuni mustahkamlash maqsadida qo’llash mumkin.

Ayni paytda, muayyan afzallik va imkoniyatlariga qaramay, autentik videomateriallarni darsda qo’llashda o’ziga xos muammolar mavjud bo’lib, u birinchi navbatda autentik videomateriallarni o’quv rejasiga moslashtirish bilan bog’lik. Bunda materiallarni saralash va mavzuga moslashtirish, uni til o’rganuvchilarning yoshi, bilim darajasi va auditoriyasiga (qaysi sohaga yo’naltirilganligiga) qarab amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Mavzuga oid o’rganilgan manbalar shuni ko’rsatdiki, autentik videomateriallarni saralash tashkil etiladigan dars maqsadi va vazifasidan kelib chiqib muayyan printsiplar asosida amalga oshiriladi. Jumladan, rus olimi T. S Malisheva bo’lajak chet tili o’qituvchilarida ijtimoiy madaniy kompetentsiyani shakllantirish bo’yicha olib borgan tadqiqotida autentik videomateriallarni saralashni ijtimoiy-madaniy kompetentsiya mezonlari asosida amalga oshirilishini ilgari surgan bo’lsa, G. G Joglina ta’rifida kommunikativ kompetentsiya tamoyillari asosiy me’yor sifatida ajratib ko’rsatilgan. Amerika olimlari Syuzan Stempliski va Barri Tomalin esa autentik videomaterialni saralashda uning tashkiliy qismiga ko’proq e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlaydilar.Biz yuqoridagi olimlar fikrini inobatga olib, autentik videomateriallarni saralashning quyidagi me’zonlarini taklif etamiz:

- autentik videomaterialning ta’lim maqsadlariga muvofiqligi;
- autentik videomaterialdagi axborotning yangiligi va ixchamligi;
- autentik videomaterialni o’quvchining chet tili bilim darajasiga mosligi;
- tanlangan autentik videomaterial mazmunining hayotiyliigi.

Autentik videomateriallarni darsda qo’llashning ikkinchi o’ziga xos jihati — o’rganilayotgan tilning qiyinligi, so’zlar xilma-xilligi, nutqning tezligi, turli leksik birliklarga boyligidadir.¹

Bunday vaziyatda pedogog materiallarni qo’llashda o’quvchilar imkoniyatlarini hisobga olgan holda, muayyan sistemaga solingan mashqlar ketma-ketligini ishlab chiqishi; autentik videomateriallar namoyishi bilan bog’liq mashqlar ustida ish olib borar ekan, videonamoyishning

¹ П. К. Бабинская, Т. П. Леонтьева «Практический курс методики преподавания иностранных языков» Минск – 2003 г.

uch asosiy bosqichini hisobga olmog'i lozim. Audio-video materiallarni darsda qo'llashning an'anaviy uch bosqichi (Pre-Watching, While-Watching, Post-Watching stages) mavjud:

- namoyishdan oldingi bosqich (autentik videomaterialni qo'llashdan oldingi bosqich);
- namoyish bosqichi (autentik videomaterialni qo'llash bosqichi);
- namoyishdan keyingi bosqich (autentik videomaterialni qo'llashdan keyingi bosqich).

Yuqorida ta'kidlangan metod asosida samarali mashg'ulot olib borish, ko'zlangan natijaga erishish uchun pedagog har bir bosqichning vazifasiga muvofiq mashqlar tipologiyasidan kelib chiqib darsni tashkil etishi talab etiladi. Bunda birinchi bosqich til o'rganuvchilarni video namoyishga tayyorlashga yo'naltirilgan bo'lib, o'rganuvchilarga motivatsiya berish, qiziqtirish, mavzu bilan tanishtirish, mavjud bilimlarni faollashtirish kabi muhim vazifalarni o'z ichiga oladi. Pedagog videonamoyishdan avval:

- videomaterial mavzusini yoritishda yordam beradigan kalit so'zlar yordamida mavzuni muhokama qilish;
- taqdim etiladigan videomaterialni dastlab, ovozsiz namoyish etish (bunda til o'rganuvchilarga nima haqida so'z borayotganini taxmin qilish yoki erkin ovozlashtirish imkonini berish);
- namoyish etiladigan videomaterialning dastlab faqat audioformatini taqdim etish (videomaterialning ovoqli formati orqali, video syujetini aniqlash) usulini o'rinli qo'llash yuqorida aytilgan vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi.

Ikkinchi bosqichda videomaterial muayyan qismigacha namoyish etilib, keyingi voqealar rivoji haqida o'rganuvchilarning fikrini aniqlash uchun videomaterial namoyishidan oldin berilgan leksik birliklarni qo'llash o'rniga e'tibor qaratishga asoslangan mashqlar berish mumkin.

So'nggi bosqichda esa namoyish etilgan videomaterialni tushunish hamda material asosida yozma va og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratiladigan mashqlardan foydalanish yoki videomaterialda aytilgan fikrni davom ettirishga yo'naltirilgan topshiriqlar beriladi. J. Xarmerning (Harmer J.) videomateriallarni darsda qo'llash texnikasi to'g'risida bergan tavsiyalariga ko'ra:

- videomateriallarni ovozsiz ko'rish (Silent viewing);
- videomaterialni ma'lum qismini to'xtatib qo'yish (Freeze framing),

Bunda talabalardan lavhaning davomini taxmin qilish talab etiladi;

- qisman ko'rish (Partial viewing), bunda ekranning asosiy qismini mato yoki qog'oz bilan berkitib video namoyish etiladi;

- tasvir yoki ovoz (Picture or speech), (darsda o'tirganlarning yarmi videoni ekranga teskari o'tirgan holda tinglashadi);

- chet tili ta'limida bu kabi videoni qo'llash usullari, avvalo, o'quvchilarda qiziqish va motivatsiya uyg'otadi.²

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mavzu bo'yicha til o'rganuvchilar auditoriyasiga moslangan autentik videomateriallar o'quvchilarga kerakli ma'lumotni ko'rish-tinglash va imo-ishoralar orqali tushunish, namoyish etilgan lavhaning madaniy xususiyatlarini to'laligicha anglash bilan birga, ular asosida maqsadga yo'naltirilgan mashqlar to'plami (nutqni rivojlantirish uchun dialoglar, bahsmunozaralar, monologlar) til o'rganuvchilarning kommunikativ kompetentsiyasini oshirishga xizmat qiladi.

² Отабоева, М. Р. Чет тилини о'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / М. Р. Отабоева. - Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый. - 2017.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Yasnitskiy Yu.A. Multimedia texnologiyalari - kasbiy ta'lim sifatining yangi bosqichi. / Multimediya to'plami Pedagogik g'oyalar festivali Ochiq dars - 2007-2008 – o'quv yili. Umumiy pedagogik texnologiyalar – M. 2008.
2. Jalilov J. Chet tili o'qitish metodikasi, Toshkent .2012
3. 社首，教首游戏的国内外何究综述[J]现代教育技术，2007（07）
4. 蔡莉刘芳好对外汉语教？游戏设计模型的训究和应用], 中化教育初究, 2011
5. Alimova, S. F. Morphological Classification of Languages.
6. Alimova, S. F. (2021). XITOIY TILIDA OMONIMIYANING TURDOSH XODISALARDAN FARQLANISHI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 1), 21-28.
7. Alimova, S. F. (2022). THE STUDY OF THE TOPIC SYNONYMY AND RHYTHM IN THE WORKS OF DOMESTIC AND FOREIGN LINGUISTS. *American Journal Of Philological Sciences*, 2(06), 7-10.
8. Рахматуллаева, Д. М. (2021). 浅谈汉语声调教学问题. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 1), 344-348.
9. Anvarovna, P. N. S. (2022). PHILOLOGY STUDENTS FOREIGN LANGUAGE INTERCULTURAL COMPETENCE DEVELOPMENT IN TEACHING CHINESE LANGUAGE: RESULTS OF EXPERIMENTAL TEACHING. *湖南大学学报 (自然科学版)*, 49(03).
10. Nazarova, S. A. (2017). THE ISSUE OF LEXICAL COMPETENCE FORMATION IN THE PROCESS OF TEACHING CHINESE LANGUAGE. In *Актуальные вопросы преподавания китайского и других восточных языков в XXI в.* (pp. 143-147).
11. Djafarov, B., Nishanbaeva, A., Mirzakhmedova, K., & Nuriddinov, N. (2021). GRAMMATICAL ADAPTATION OF THE TURKIC LOANWORDS IN PERSIAN (IN THE EXAMPLES OF ADJECTIVE PHRASES). In *Культурология, искусствоведение и филология: современные взгляды и научные исследования* (pp. 102-106).
12. С.А.Насирова (2021). Политическая метафора (на примере материала по кадровой политике современной КНР). In *Resent Scientific Investigation* (pp. 69-73).
13. Хашимова, С. А. (2022, September). ОБРАЗОВАНИЕ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ С ПОМОЩЬЮ АФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *E Conference Zone* (pp. 5-10).